

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMOVA SAYYORA XATAMOVNA

**QAROR QABUL QILISHNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI ISHLAB
CHIQRISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Rustamova Sayyora Xatamovna

Qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish..... 3

Рустамова Сайёра Хатамовна

Повышение эффективности управления на производственных предприятиях через оптимизацию принятия решения..... 25

Rustamova Sayyora Xatamovna

Improving management efficiency in manufacturing enterprises by optimizing decision making 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMOVA SAYYORA XATAMOVNA

**QAROR QABUL QILISHNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI ISHLAB
CHIQRISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon-2023

Falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt1059 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.adu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Askarov Nodirbek Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismanov Ibroxim Nabiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bazarova Gulnora Gulyamovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Etakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.I.60.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “___” ___ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel./ faks: 0(374) 223-88-30, e-mail: agsu_info@edu.uz.).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel./ faks: 0(374) 223-88-30).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «___» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.Muftaydinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.v.b., i.f.d., professor

U.I.Maraimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

Q.Muftaydinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xo‘jaligi tizimida ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalar tobora murakkablashib borayotgan global iqtisodiy tizimda hayotiylikni saqlab qolish imkoniyatini xohlaydi. “HR mutaxassisleri har kuni qaror qabul qilishadi. Ularning har biri biznesga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi va “kapalak effekti” deb ataladigan potentsialni keltirib chiqarishi mumkin.”¹ Ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqaruv qarorlarini qabul qilishni optimallashtirish orqali tadbirkorligini yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish hamda talab hajmini o‘zgarishiga ko‘ra, ishlab chiqaruvchilarni ish muhitiga nisbatan xavf darajasi o‘zgaradi. Global iqtisodiyot sharoitida boshqaruv qarorlari samaradorligini, samarali boshqaruv modeli va mexanizmini, boshqaruv qarorlari ijrosini ta‘minlash kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatida qaror qabul qilishni optimallashtirishga asoslangan, bir maqsad yo‘lida integratsiyalashgan korxonalarini ichki imkoniyatlaridan foydalanish asosida boshqaruv samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda to‘liq quvvat bilan faoliyat yuritayotgan hamda endilikda shakllanayotgan ishlab chiqarish korxonalarida qabul qilingan qarorlarni, samarali boshqaruv modeli va mexanizmini joriy etish, boshqaruv qarorlari ijrosini ta‘minlash hamda boshqaruv samaradorligini ijobiy ta‘sirini oshirish borasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ilgari surilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarida qarorlar qabul qilish hamda ijrosini baholash, sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirishga qaratilgan ishlarga ustuvorlik qaratilishi ko‘zda tutilgan. Bu borada ishlab chiqarish korxonalarida eskirgan va amaliyotda qo‘llanilmaydigan boshqaruv qarorlarini chiqarib tashlash, bozor mexanizmlarini joriy etish nuqtai-nazaridan samarali qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yilarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 21 yanvarda PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 9 dekabrda PF-32-son “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29

¹ <https://hurma.work/ru/blog/prinyatie-reshenij-rabotayushhie-metody-i-glavnye-oshibki/>

martdagi 166-son “2021-2025 yillarda Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 28 noyabrdagi 959-son “Davlat boshqaruvida ilg‘or davlat menejmenti va “aqlli” boshqaruv printsiplarini bosqichma-bosqich joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 14 apreldagi 218-son “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qaror qabul qilishni optimallashtirish, korxonalarda boshqaruv samaradorligini turli jihatlarini o‘z vaqtida G. Cokins, Y.Chengang, A.Gunasekaran, A.Ghadge, R. Galindo-Dorado, S.S.Kamble, E.Karadag, F.Laghari, M. Madanoglu, L.A. Orozco, R.Raut, Sijun Bai, Tao Zou, J.Vargas kabi xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan².

Qaror qabul qilishni optimallashtirish, korxonalarda boshqaruv samaradorligining umumiy muammolari bo‘yicha MDH olimlaridan В.Ю.Глебов, Н. Дегтярева, А.А.Зиньковская, Е.Колмакова, И.Д. Колмакова, А.В.Чуваев³ va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda Yo.Abdullaev, Sh.A.Atamuradov, S.B.Abdujabborov, G.E.Zaxidov, D.A.Kurbanova, Sh.Z.Muxitdinov, A.O.Ochilov, S.A.Sattarov,

² G. Cokins, “Enterprise performance management (EPM) and the digital revolution,” *Performance Improvement*, vol. 56, no. 4, pp. 14–19, 2017; F. Laghari and Y. Chengang, “Investment in working capital and financial constraints,” *International Journal of Managerial Finance*, vol. 15, no. 2, pp. 164–190, 2019.; Kamble, S.S., Gunasekaran, A., Ghadge, A., Raut, R., 2020 a. A performance measurement system for industry 4.0 enabled smart manufacturing system in SMMEs-A review and empirical investigation. *Int. J. Prod. Econ.* 229 <https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2020.107853>. Article 107853.; L.A. Orozco, J. Vargas, and R. Galindo-Dorado, “Trends on the relationship between board size and financial and reputational corporate performance,” *European Journal of Management and Business Economics*, vol. 27, no. 2, pp. 183–197, 2018.; M. Madanoglu and E. Karadag, “Corporate governance provisions and firm financial performance,” *International Journal of Contemporary Hospitality Management*, vol. 28, no. 8, pp. 1805–1822, 2016.; Tao Zou, Sijun Bai *Enterprise Performance Optimization Management Decision-Making and Coordination Mechanism Based on Multiobjective Optimization.*// *Mathematical Problems in Engineering* Volume 2021, Article ID 5510362, 12 pages <https://doi.org/10.1155/2021/5510362>;

³ Глебов В.Ю. Повышение эффективности функционирования промышленного предприятия на основе комплексного управления задолженностью. к.э.н. автореф: -М. 2010, -С. 34.; Зиньковская А.А. Методы оценки эффективности управленческих решений // *Международный студенческий научный вестник [Электронный ресурс]*. 2015. № 4 – 2. URL: <http://www.eduherald.ru/ru/article/view?id=13460>; Колмакова Е., Дегтярева Н, Колмакова И. Effective Management Predictions on yhe Basis of the Regression Model // *INSIGHTS AND POTENTIAL SOURCES OF NEW ENTREPRENEURIAL GROWTH: Proceedings of the International Roundtable on Entrepreneurship 4 december 2016, BELGRADE, SERBIA.* - Filodiritto Publishe. - First Edition Vol. IV, No. 1, 2017. pp.146 – 156.; Колмакова, И.Д. К вопросу о применении эконометрических методов исследования в социальных процессах / И.Д. Колмакова, Н.А. Дегтярева, Е.М. Колмакова // *Вестник Челябинского государственного университета. Серия: «Экономика».* - 2016. вып. 55. – С. 51-57.; Чуваев А.В. Совершенствование методики принятия управленческих решений на основе диагностики производственных процессов. к.э.н. диссер... -Новосибирски. 2017, -С. 134.

S.S.Sobirjonov, A.A.Sultanov, A.X.Xolov, N.J.Xojiyeva, M.Sharifxo‘jaev⁴ kabi olimlar qaror qabul qilishni optimallashtirish, korxonalarda boshqaruv samaradorligi bo‘yicha umumiy jihatlarini ko‘rib chiqqan. Lekin chuqur va kompleks holatda yangi o‘zgarishlar asosida yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot ishini yanada dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

boshqaruv qarorlarining turlari, vositalari hamda qabul qilish usullarini ochib berish;

optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish mezonlari hamda qarorlar qabul qilish va amalga oshirishda zamonaviy menejment uslublarini tadqiq etish;

qarorlar qabul qilishda milliy hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish;

ishlab chiqarish korxonasida qarorlarni qabul qilish usullarini hamda ijrosini baholash;

ishlab chiqarish korxonasida qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta’sirini iqtisodiy matematik modellashtirish;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini takomillashtirish;

sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish;

boshqaruv qarorlarini ijrosini ta’minlash hamda boshqaruv samaradorligiga ta’sirini oshirish.

⁴ Шарифхўжаев.М., Абдуллаев. Ё “Менежмент” “Ўқитувчи” Тошкент-2001.,704 б.; Атамурадов Ш.А. Инновацион тадбиркорлик фаолиятини венчур фондлари орқали молиялаштиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш: иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т. -2021 й., Абдужабборов С.Б. Корхонада инкирозга қарши бошқарув стратегиясини ишлаб чиқишнинг илмий асосларини такомиллаштириш: иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т.-2020 й., 49 б.; Захидов Г.Э. Ўзбекистон енгил саноатида ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги: иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т.-2017 й., 52 б.; Курбанова Д.А. Саноат корхоналарини ресурс тежамкорлиги асосида иқтисодий самарадорлигини ошириш: иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т.-2021 й., 52 б.; Мухитдинов Ш.З. Кўп тармоқли хўжалик тузилмалари фаолиятини бошқариш механизмларини такомиллаштириш (фермер хўжаликлари мисолида): иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т. -2020 й., 59 б.; Очилов А.О. Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш: иқт. фан. докт. автореф. Т.-2018 й., 75 б.; Саггаров С.А. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида ижтимоий-иқтисодий ривожланишни бошқариш самарадорлигини ошириш: иқт. фан. докт. автореф. Т. -2019 й., 62 б.; Собиржонов С.С. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш: иқт. фан. докт. автореф. Т. -2021 й., 57 б.; ; Султанов А.А. Тўқимачилик саноати корхоналарида ишлаб чиқаришни диверсификациялашни бошқариш самарадорлигини ошириш: иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т.-2017 й., 53 б. Холов А.Х. Маҳаллий давлат ҳокимияти органларида бошқарув қарорлари қабул қилиш механизмини такомиллаштириш: иқт. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т.-2018 й., 57 б.; Хожиева Н.Ж. Ахборот бошқарув тизимларида қарор қабул қилишни ахборотли қувватлаш алгоритмлари ва усуллари: тех. фан. бўй. фал. докт. автореф. Т.-2021й., 41 б.; 54 б.

Tadqiqotning ob'yekti. Andijon viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalarini boshqaruv faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ilmiy abstraktsiya, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, ekspert baholash, tizimli tahlil, ekonometrik modellashirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarida boshqaruv qarorlari samaradorligining integral ko'rsatkichlarini $[0;1]$ "xavfi yuqori", $[1,01;1,5]$ "me'yordagi xavfsiz", $[1,51;2]$ "mutlaqo xavfsiz" baholashga ko'ra chegara mezonlari asoslangan;

"Lux textile" xususiy korxonasi ishlab chiqarishning xomashyo matosini tayyorlash jarayonida ishtirok etuvchi xodimlar sonini yangi texnika va texnologiyalarni kiritish orqali qisqartirish korxonasi foydasini oshirishga olib kelishi asoslangan;

"Lens Textile invest" MChJda qaror qabul qilish mexanizmiga mazkur sohaga innovatsiyalar kiritish bilan shug'ullanadigan maxsus bo'linma tashkil etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

to'qimachilik korxonalarida boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillariga ko'ra "Lens Textile invest" MChJning 2026 yilgacha mehnat unumdorligi darajasining prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshqaruv qarorlarining turlari, vositalari hamda qabul qilish usullari ochib berilgan;

ishlab chiqarish korxonasida qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta'sirini baholashning ko'p omilli ekonometrik modeli ishlab chiqilgan;

sanoat korxonalarida qaror qabul qilish jarayoni raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirilgan;

boshqaruv qarorlarini ijrosini ta'minlash hamda ularni baholash asosida boshqaruv samaradorligiga ta'siri asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv, usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy uslubiy taklif va tavsiyalar to'qimachilik korxonalarida qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga oid ilmiy apparatni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, uning uslubiy jihatlarini hamda boshqaruv tizimi amal qilishini ishlab

chiqishda foydalanish mumkinligi hamda nazariy va tahliliy materiallardan OTMda “Menejment”, “Iqtisodiy qaror qabul qilish”, “Ta’lim menejmenti” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qaror qabul qilishni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

to‘qimachilik korxonalarida boshqaruv qarorlari samaradorligining integral ko‘rsatkichlarini $[0;1]$ “xavfi yuqori”, $[1,01;1,5]$ “me’yordagi xavfsiz”, $[1,51;2]$ “mutlaqo xavfsiz” baholashga ko‘ra chegara mezonlari bo‘yicha taklifi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tomonidan 2021 yilda №245-sonli buyruq tasdiqlanib, Andijon viloyati «Lux Textile» xususiy korxonasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘to‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022 yil 19 apreldagi 03/25-1167-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Lux Textile” xususiy korxonasining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash mezonini boshqaruv qarorlari natijasida $[1,01;1,5]$ “me’yordagi xavfsiz” darajada bo‘lishi imkonini bergan.

“Lux Textile” xususiy korxonasi ishlab chiqarishning xomashyo matosini tayyorlash jarayonida ishtirok etuvchi xodimlar sonini yangi texnika va texnologiyalarni kiritish orqali qisqartirish korxonasi foydasini oshirishga olib kelishi bo‘yicha taklifi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2021 yildagi №245-sonli buyruq bilan tasdiqlangan holda “Lux Textile” xususiy korxonasining faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022 yil 19 apreldagi 03/25-1167-son ma’lumotnomasi). Natijada “Lux Textile” xususiy korxonasi boshqaruv qarorlarining ijtimoiy-tashkiliy samaradorligini qo‘shimcha oshirilishiga imkon yaratgan.

“Lens Textile invest” MChJ da qaror qabul qilish mexanizmiga mazkur sohaga innovatsiyalar kiritish bilan shugvullanadigan maxsus bo‘linma tashkil etishning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklifi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2021 yildagi №245-sonli buyruq bilan tasdiqlangan holda “Lens Textile invest” MChJning boshqaruv faoliyatiga joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022 yil 19 apreldagi 03/25-1167-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Lens Textile invest” MChJning iqtisodiy samaradorligi 9,1 foizga, texnologik samaradorligi 8,0 foizga hamda ishlab chiqarish xajmini 5,3 foiz qo‘shimcha oshirish imkonini bergan.

to‘qimachilik korxonalarida boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillariga ko‘ra “Lens Textile invest” MChJning 2026 yilgacha mehnat unumdorligi darajasining prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha taklif «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2021 yildagi №245-sonli buyruq asosida “Lens Textile invest” MChJni 2022-2026 yillarda rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2022 yil 19 apreldagi 03/25-1167-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Lens Textile invest” MChJning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan strategik rejalari hamda mehnat unumdorligini 35 foizga ortishiga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqot ishi natijalaridan 4 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy konferentsiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK ro'yxatiga kiruvchi jurnallarda 8 ta, xorijiy jurnalda 1 ta ilmiy maqola hamda 14 ta tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda boshqaruv qarorlarining shakllari, vositalari hamda qabul qilish usullari, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish mezonlari hamda qarorlar qabul qilish va amalga oshirishda zamonaviy menejmentning baholash jihatlari tadqiq qilingan.

Ilmiy adabiyotlarda “Qaror qabul qilish” atamasi ilk bor XX asrning 30 yillarida amerikalik olimlar Ch. Bernard, E. Stin va boshqalar tomonidan qo'llanilgan, ular ijtimoiy va tashkiliy jarayonlarni nomarkazlashtirishni ta'riflashda bu atamadan foydalangan. XX asrning 60 yillarida bu nazariya G. Saymon va D. March tomonidan yanada rivojlanadi⁵. Ko'p yillar davomida iqtisodchilar firmalar o'zlarining asosiy maqsadi – maksimal foyda olish yo'lida ratsional harakat qiladi, deb hisoblashgan. Saymon esa, aksincha, firmani murakkab tashkilot deb hisoblaydi va qarorlar ularning a'zolari tomonidan kollektiv (jamoaviy) tarzda qabul qilinadi, degan fikrni ilgari suradi. 1978 yilgi Nobel mukofoti AQShdagi Karnegi-Mellon universiteti (Pitsburg) professori Gerbert Saymonga “iqtisodiy tashkilotlarda qabul qilinadigan ichki qarorlar jarayoni to'g'risidagi ilk tadqiqoti uchun”⁶ berildi.

“Boshqaruv qarorlari” tushunchasi bo'yicha ko'plab olimlarning qarashlari yoki ta'riflari tizimlashtirilgan. Yuqorida keltirilgan ta'riflarda “boshqaruv ob'ektiga nisbatan”, “vaziyatni tahlil qilish”, “prognoz va eng yaxshi variantni tanlash”, “axborotni tahlil qilish va maqsadga erishish”, “alternativ shaklini tanlash jarayondir”, “majburiyatlarini bajarishi shart bo'lgan tanlov” va “bir to'htamga kelishi hamda to'g'ri tashhis qo'yish jarayoni” kabi tushunchalar bilan farqlanadi⁷.

⁵ Назаров А.С., Бахтиёров Б.Б «Қарор қабул қилиш бошқарув фаолиятининг психологик мезони сифатида» «Молодой ученый» № 11(301) 2020

⁶ Хилола Салоева «Қарор қабул қилиш назарияси асосчиси» «Менинг мулким-Частная собственность» газетаси 30.03.2018

⁷ Толковые словари. Образовательный ресурс. [http // ww-/ edudic.ru /biz/20526](http://ww-/edudic.ru/biz/20526). – 642 с.

Boshqaruv qarorlarining texnologik ahamiyati bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan texnik, axborot resurslari bilan ta‘minlangan bo‘lishi tushiniladi⁸.

Boshqaruvning asosiy negizi hisoblangan boshqaruv qarorlari to‘g‘risida berilgan qarashlari bir tizimga keltirildi (1-jadvalga qarang).

B.V.Nasimovning ilmiy ishida noma‘lum bo‘lgan tashqi muhit sharoitida korxonalar elementlarini mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish darajasigacha rivojlantirish korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlashning zaruriyati ekanligini ta‘kidlangan⁹.

A.B. Тычинский o‘zining «Неопределенность в принятии управленческих решений» nomli maqolasida “Iqtisodiyotda aynan sof noaniqlik holatlari tez-tez uchrab turadi, chunki qaror qabul qilish ayniqsa strategik qaror qabul qilish har bir aniq firma tomonidan o‘ziga xos sharoitlarda qabul qilinadi”¹⁰ deb, aytgan.

Boshqaruv qarorlari umumiy holda 2 guruhga, ya‘ni: rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan qarorlarga bo‘linadi. Rejalashtirilgan qarorlar-boshqaruv faoliyatida tez tez qaytarilib turuvchi vaziyatlar uchun oldindan ishlab chiqilgan harakatlar mexanizmi bo‘lib, bunda imkoniyatli variantlar soni aniq va cheklangan, ularning natijalari ham oldindan aniq bo‘ladi. Rejalashtirilmagan qarorlar- yangi vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlar bo‘lib, bunda imkoniyatli variantlar soni ham, uning natijalari ham noaniq bo‘ladi.

1-jadval.

Boshqaruv qarorlari to‘g‘risida xorij, MDH va mahalliy olimlarning qarashlari tizimlashtirilgan¹¹

Mualliflar	Ta‘riflar
NATIJA-CONCLUSION	
A.B.Tebekin, V.B.Mantusov	Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish metodologiyasi boshqaruv ob‘ektiga nisbatan materialistik dialektikaning asosiy qoidalaridan muntazam va kompleks foydalanish.
A.X.Xolov	“Qaror qabul qilish tasodifiy bo‘lmagan jarayon sifatida o‘z mohiyatiga ko‘ra tanlovdir, ya‘ni ko‘plab turli-tuman mazmun yo‘nalishlardan birini tanlashdir. Qaror- bu faoliyatni amalga oshirish uchun shart bo‘lgan vazifa(topshiriq)ning aniq bir tartibini belgilab berish uchun mutaxassis tomonidan bildirilgan xulosaviy munosabatdir”.
A.N.Asaul	Boshqaruv qarori- vaziyatni tahlil qilish, bashorat qilish va eng yaxshi variantni tanlash, tadbirkor tomonidan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan aniq harakatlar rejasini ishlab chiqish natijasidir.
A.B.Zarubenko	Boshqaruv qarori -bir vaqtning o‘zida axborotni tahlil qilish, prognozlash, optimallashtirish va maqsadga erishish uchun mumkin bo‘lgan usullar to‘plamidan muqobilini tanlashdir.

⁸ Абдуллаев О.М., Фаттохов А.А., К.Ахмедов Рақамли иқтисодиёт. Т.: « LESSON PRESS», нашриёти 2020 йил-65- б

⁹ Насимов Б.В Корхоналар фаолиятини бошқаришда замонавий менежмент услубларидан фойдаланиш самарадорлиги мавзусидаги иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Т.-: 2019, 13-14-б

¹⁰<https://cyberleninka.ru/article/n/neopredelennost-v-prinyatii-upravlencheskih-resheniy/viewer> А. В. Тычинский Неопределенность в принятии управленческих решений, 118-120 б


¹¹ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

E.A.Smirnov	Boshqaruv qarori- bu tahlil qilish, prognozlash, optimallashtirish, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va muayyan boshqaruv maqsadiga erishish uchun turli xil variantlardan birini tanlash natijasidir.
JARAYON-COURSE	
N.K.Yo‘ldashev, G.E.Zahidov	Boshqaruv qarori- bu birinchidan, hujjat (qaror, buyruq, tadbirlar rejasi va x.k.), ikkinchidan qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishni o‘z ichiga oluvchi jarayondir.
F.Latfullin, N.Novichkovlar	Boshqaruv qarori– bu yakuniy bosqichidagi boshqaruv jarayonini yo‘naltirilganligini ifodalaydi.
M.Sharifxo‘jaev, Yo.Abdullaev	Qaror qabul qilish - bu tashkilot rahbarini, tashkilot oldidagi maqsadiga erishish uchun o‘z vakolati va omilkorligi doirasida qarorning mavjud variantlaridan eng maqbulini tanlash jarayonidir
Fe‘l –atvor yondashuvi namoyondasi G. Saymon	Qaror qabul qilish vaziyatga bog‘liq jarayon bo‘lib, muayyan muammoning o‘zgarishiga qarab uni hal qilish vositalari ham o‘zgaradi.
M.V.Glazova	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish – bu korxonada maqsadlari va qadriyatlariga mos keladigan alternativ shaklini tanlash jarayondir.
KELISHUV- CONCORDANCE(COMPROMISS)	
R.Abelson, A.Levi	Qaror qabul qilish jarayoni -oqilona maqsad qo‘yish va unga erishishni maqbul vositalarini ilgari surishga xizmat qiladi.
Sh.N.Zaynutdinov, A.T. Shermuhametov, I.Murakaev	Boshqaruv qarori - keng ma‘noda moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarning real qondirilish imkoniyatlari bilan bir nuqtada kelishuvini anglatadi.
V.P.Sladkevich, A.D.Chernyavskiy	Boshqaruv qarori - bu rahbarni egallab turgan lavozimi doirasida majburiyatlarini bajarishi shart bo‘lgan tanlovdur.
Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, muallif ta‘rif	Boshqaruv qarori- rahbar o‘z vakolati doirasida, faoliyati davomida yuzaga kelayotgan muammolarga to‘g‘ri tashxis qo‘yishi, hamda asoslangan, yaxshi o‘ylangan mavjud yechimlar orasidan vaziyatdan kelib chiqqan holda bir to‘xtamga kelishi jarayonidir.

Qarorlarini qabul qilishni xarakterlovchi 5 ta mezonlari quyidagilar hisoblanadi: muhimlik (kutilayotgan foyda va zarar hajmi orqali aniqlanadi); takrorlanish (ba‘zi qarorlar hayot davomida bir marotaba qabul qilinadi, ba‘zilari-har kuni); tezkor (tezlik bilan qabul qilingan qaror yoki uzoq vaqt kutish mumkin bo‘lgan qaror); to‘g‘rilash (ba‘zi qarorlarni osonlikcha to‘g‘rilash mumkin, ba‘zilarini esa to‘g‘rilash imkoniyati yo‘q yoki ularning to‘g‘rilanishi katta yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘ladi); muqobillar soni (ba‘zi qarorlarda 2 dona muqobil, ya‘ni ha yoki yo‘q javobi yetarli bo‘lsa, ba‘zi qarorlarda ko‘plab variantlar bo‘lishi mumkin)¹².

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi(1-rasmga qarang):

¹² А. Н. Асаул, В. П. Грахов, О. С. Ковал, е. И. Рыбнов; Теория и практика разработки принятия и реализации управленческих решений в предпринимательстве / монография под ред. заслуженного деятеля науки РФ, д-ра экон. наук, профессора А. Н. Асаула. — СПб.: АНО «ИПЕВ», 2014. 21 с



1-rasm. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni¹³.

Qaror qabul qilish–tashkilot rahbarining tashkilot oldidagi maqsadga erishish uchun o‘z vakolati va omilkorligi doirasida qarorninig mavjud variantlaridan eng maqbulini tanlash jarayonidir.

Horijiy kompaniyalar amaliyotida zamonaviy boshqaruvning asosan 3 ta innovatsion tendentsiyalari namoyon bo‘ladi:1) tegishliligi bo‘yicha umumiy qarorlarni qabul qilishning murakkablik jarayonlari ya’ni qaror qabul qilishda barchani fikri va ularning bu qaror yuzasidan bildirilgan munosabatlarning inobatga olinishi;2) o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi murakkabliklarni va noqulayliklarni bartaraf etishda tezkor yangicha boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish;3) boshqaruv tizimini soddalashtirish orqali uzoq muddatli rejalashtirish vaqtini tajribaviy qisqartirish¹⁴.

Tadqiqotning **“Ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari tahlili”** deb, nomlangan ikkinchi bobida qarorlar qabul qilishda milliy hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili qilingan. Ishlab chiqarish korxonalarida qarorlarni qabul qilish usullarini, qabul qilingan qarorlar ijrosini baholash hamda qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta’sirini iqtisodiy matematik modellashtirish hisobiga yoritilgan.

Ishlab chiqarish korxonasi sifatida “Lux Textile” xususiy korxonasini ishlab chiqarish faoliyati tahlil etilgan. Korxonaning ustav fondi 1618,7 mln. so‘mni tashkil etadi. Korxonaga ko‘rgan foyda hisobidan zahira va boshqa jamg‘armalar tuzishi mumkin. Jamg‘armalarni tashkil etish va ishlatish tartibi to‘g‘risida qaror

¹³ Muallif ishlanmasi

¹⁴ Абдуллаев Д.Х. Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда замонавий бошқарув услублари . «Рақамли иқтисодиёт: иқтисодий ривожланиш тенденцияларини такомиллаштириш ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш истикболлари» Республика илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва маърузалар тўплами 2019 йил 2 декабр, 42-бет

korxonalar mulkdori tomonidan qabul qilinadi. Korxonalar mulkdori korxonalar rahbari sifatida yakka boshqaradi, korxonalar nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, korxonalarining pul mablag'larini hamda boshqa mulkni tasarruf etadi. Korxonalar xodimlari bilan mehnat shartnomani tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonalarining barcha xodimlari uchun buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Boshqaruv qarorlarini iqtisodiy samaradorligini quyidagi usullar orqali baholash keng uchraydi: qarorni tayyorlash, qabul qilish va ijrosini ta'minlash orqali harajatlarni iqtisod qilish; oxirgi umumnatijaga asosan; turli boshqaruv qarorlarini qiyosiy taqqoslash orqali samaradorlikka erishish; tashkilotni iqtisodiy ko'rsatkichlarining ijobiy va salbiy o'zgarishi orqali baholash¹⁵.

Qarorlarni tahlil qilishda mavjud muqobil variantlarini tanlash va turli yondashuvlarni asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni to'rtta asosiy zamonaviy usullari mavjud: xarajat va foydani taqqoslash usuli. Eng kam xarajat bilan maksimal foyda keltiradigan alternativ variantlarni aniqlash; afzalliklar va kamchiliklarni taqqoslash usuli. Bu usul bitta qaror qabul qiluvchi va bir nechta muqobil va mezonlarga ega bo'lgan vazifalar uchun mos keladi va hisob kitoblarni talab qilmaydi; koeffitsiyent usuli. Bunda ko'p o'zgaruvchan foyda nazariyasiga asoslanadi va uning nisbiy ahamiyatini aks ettiruvchi har bir mezonni o'z ichiga oladi. Bunda ekspert natijalariga ko'ra baholash va belgilash mumkin; ehtimollik usuli, bu nafaqat muqobil yechimlarni har birini amalga oshirishning mumkin bo'lgan natijalarini aniqlash, balki ushbu natijalarning yuzaga kelish ehtimolini ham o'z ichiga oladi. Bu usul noaniqlik va tavakkallik sharoitida qo'l keladi¹⁶.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tanlanma usuldan foydalangan holda Andijon viloyatidagi ishlab chiqaruvchi korxonalarda iqtisodiy qaror qabul qilish natijasida boshqaruvi samaradorligini baholash maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash uslubiyoti ($IQQQBS_{koeffitsiyent}$) asosida bir nechta ishlab chiqarish korxonalarining 2017-2021 yillardagi boshqaruvi samaradorligi koeffitsiyenti qiyosiy taqqoslangan (2-jadval).

Tahlil ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2021 yillarda Andijon viloyati iqtisodiyotida to'qimachilik korxonalarini boshqaruv qarori samaradorligi va iqtisodiy samaradorligini o'zgarish tendentsiyalari bo'yicha [0;2] oraliq mezonlar asosida koeffitsiyentlar ishlab chiqilgan.

2017-2021 yillarda to'qimachilik korxonalarida boshqaruv qarori samaradorligi ko'rsatkichi [0;1] "xavfi yuqori" oraliqda bo'lgan korxonalariga "Chin ilhom" MChJ (2021 yilda 0,93), "Xait teks invest" MChJ (2021 yilda 0,98), [1,01;1,5] "me'yordagi xavfsiz" oraliqda "Xateks" MChJ (2021 yilda 1,11), "Lux Textile" XK (2021 yilda 1,13), "Andijon Silk Co" MChJ (2021 yilda 1,18),

¹⁵ Бақоев М.Т. «Бошқарув қарорлари самарадорлиги ва уни баҳолаш усуллари» «Жамият ва бошқарув» 2015 йил №2

¹⁶М.В.Глазова. Современные методы принятия управленческих решений в предпринимательских структурах, ориентированных на устойчивое развитие в условиях кризиса./Вестник Волгоградского государственного университета./2016 №2(35), 46-с

“Xo‘jaobod Grand testil” MChJ (2021 yilda 1,21), “Best tekstile” MChJ (2021 yilda 1,26), [1,51;2] “mutlaqo xavfsiz” oraliqda “Saxovat teks” MChJ shaklidagi QK (2021 yilda 1,63), “Khantex group” MChJ (2021 yilda 1,71), “Lens Textile invest” MChJ (2021 yilda 1,86), “Nil Granit” MChJ (2021 yilda 1,91) kirgan. Ushbu korxonalarini uchta guruhga bo‘lib o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu korxonalarda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagicha tahlili ishlab chiqilgan (2-jadval).

Iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi [0;1] “xavfi yuqori” oraliqda bo‘lgan korxonalariga “Chin ilhom” MChJ (2021 yilda 0,63), “Xait teks invest” MChJ (2021 yilda 0,71), “Andijon Silk Co” MChJ (2021 yilda 0,81), “Xateks” MChJ (2021 yilda 0,84), [1,01;1,5] “me‘yordagi xavfsiz” oraliqda “Xo‘jaobod Grand testil” MChJ (2021 yilda 1,03), “Lux Textile” XK (2021 yilda 1,13), “Best tekstile” MChJ (2021 yilda 1,13), “Lens Textile invest” MChJ (2021 yilda 1,24), “Khantex group” MChJ (2021 yilda 1,43), [1,51;2] “mutlaqo xavfsiz” oraliqda “Nil Granit” MChJ (2021 yilda 1,69), “Saxovat teks” MChJ shaklidagi QK (2021 yilda 1,72) tashkil etgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan davrda Andijon viloyatida to‘qimachilik korxonalarida iqtisodiy qaror qabul qilishda boshqaruv qarorlari samaradorligi va iqtisodiy samaradorlikni o‘shish koeffitsiyentlari yuqori bo‘lgan. Fikrimizcha, bunga sabab so‘nggi yillarda mamlakatda to‘qimachilik korxonalariga berilayotgan e‘tibor juda ham kattadir. 2021 yil natijalariga ko‘ra, Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan aksariyat to‘qimachilik korxonalarini boshqaruv qarori samaradorligi ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi hamda ushbu korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rta darajadali aniqlandi. Jumladan, ushbu korxonalarda iqtisodiy qaror qabul qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan hamda aksariyat korxonalarini texnika va texnologiyalar zamonaviy dastgohlar bilan ta‘minlangan.

“Lens Textile invest” MChJning mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini iqtisodiy matematika modellashtirish usuli yordamida regressiya va korrelyatsiya koeffitsiyentlarini aniqlab chiqamiz. Ekonometrik modelni regressiya koeffitsiyentlarini va prognoz parametrlarini aniqlash uchun, vaqtli qatorlar bo‘yicha statistik tanlanma uchun korxonaning 2014-2021 yillar davomidagi mehnat unumdorligiga ta‘sir etuvchi ko‘rsatkichlarni ajratib olamiz.

Birinchi navbatda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichiga ta‘sir etuvchi omillarni belgilab olinadi¹⁷.

$$MU = e^{\beta_0} * MICH^{\beta_1} * KIS^{\beta_2} * AICHB^{\beta_3} * ICHQ^{\beta_4} * IHOM^{\beta_5} * MMS^{\beta_6}(1)$$

Ushbu modelda mehnat unumdorligi ta‘sir etuvchi omillarni ifodalangan. Endi ushbu modelni ikkala tomonini natural logarifilab (LN) olamiz va quyidagi ko‘rinishga keladi:

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Andijon viloyati to'qimachilik korxonalarining boshqaruv qarori va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari¹⁸

№	Ishlab chiqarish korxonalarini nomi / yillar	Boshqaruv qarori samaradorligi (IQQQBS _{koefitsiyent})					Mezon	№	Ishlab chiqarish korxonalarini nomi / yillar	Iqtisodiy samaradorligi (IQQQIS _{koefitsiyent})					Mezon
		2017	2018	2019	2020	2021				2017	2018	2019	2020	2021	
1	“Chin ilhom” MChJ	0,68	0,83	1,07	1,02	0,93	[0;1] xavfi yuqori	1	“Chin ilhom” MChJ	0,95	0,78	0,86	0,85	0,63	[0;1] xavfi yuqori
2	“Xait teks invest” MChJ	0,84	1,17	1,12	1,09	0,98		2	“Xait teks invest” MChJ	0,94	0,96	0,84	0,82	0,71	
3	“Xateks” MChJ	1,21	1,24	1,14	1,09	1,11	[1,01;1,5] me'yordagi xavfsiz	3	“Andijon Silk ko” MChJ	0,92	0,61	0,89	0,87	0,81	[1,01;1,5] me'yordagi xavfsiz
4	“Lux Textile” XK	1,49	1,33	1,27	1,12	1,13		4	“Xateks” MChJ	0,93	0,76	0,78	0,68	0,84	
5	“Andijon Silk ko” MChJ	0,89	1,03	1,41	1,21	1,18		5	“Xo'jaobod Grand testil” MChJ	0,81	0,98	0,87	0,75	1,03	
6	“Xo'jaobod Grand testil” MChJ	1,09	1,14	0,87	0,92	1,21		6	“Lux Textile” XK	1,41	0,68	0,79	0,74	1,13	
7	“Best tekstile” MChJ	0,91	1,05	1,09	1,17	1,26		7	“Best tekstile” MChJ	0,85	0,68	0,82	0,43	1,13	
8	“Saxovat teks” MChJ shaklidagi QK	1,54	1,09	1,75	1,52	1,63	[1,51;2] mutlaqo xavfsiz	8	“Lens Textile invest” MChJ	1,51	0,88	1,23	1,14	1,24	[1,51;2] mutlaqo xavfsiz
9	“Khantex group” MChJ	0,76	1,23	0,98	1,35	1,71		9	“Khantex group” MChJ	1,05	1,08	1,13	1,21	1,43	
10	“Lens Textile invest” MChJ	1,76	1,73	1,69	1,53	1,86		10	“Nil Granit” MChJ	1,34	1,45	1,42	1,49	1,69	
11	“Nil Granit” MChJ	1,06	1,14	1,27	1,46	1,91		11	“Saxovat teks” MChJ shaklidagi QK	1,74	1,56	0,98	1,39	1,72	

¹⁸ Muallif tomondan hisob kitoblar ishlab chiqilgan..

$$LN(MU) = \beta_0 + \beta_1 * LN(MICH) + \beta_2 * LN(KIS) + \beta_3 * LN(AICHB) + \beta_4 * LN(ICHQ) + \beta_5 * LN(IHOM) + \beta_6 * LN(MMS) \quad (2)$$

Bu yerda:

MICH- Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (tn)

KIs- Korxonada jami ishchi-xodimlar soni (kishi)

AICHB- Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar(kishi)

ICHQ- Korxonaning ishlab chiqarish quvvati (tn)

IHOM- Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori (mln. so'm)

MMS- Korxonada mahsulotning mehnat sig'imi (kishi/tn)

Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi.

Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil (mehnat unumdorligi, LnMU) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymati 0,9 dan katta. Ammo, LN_KIS, LN_AICHB va LN_MMS_ omillar natijaviy ko'rsatkichiga teskari ta'sir ko'rsatadi, chunki ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari manfiy ishoraga ega.

3-jadval

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish koeffitsiyentlari

	LN_MU	LN_MICH	LN_KIS	LN_AICHB	LN_ICHQ	LN_IHOM	LN_MMS
LN_MU	1						
LN_MICH	0.924	1					
LN_KIS	-0.557	-0.608	1				
LN_AICHB	-0.417	-0.500	0.959	1			
LN_ICHQ	0.917	0.994	-0.617	-0.536	1		
LN_IHOM	0.907	0.980	-0.714	-0.593	0.968	1	
LN_MMS_	-0.908	-0.988	0.716	0.625	-0.989	-0.987	1

Bu yerda eng muhim holat bo'lib, ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi kerak. Ya'ni, multikolleniarlik mavjud bo'lmashligi lozim. Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,9 dan kichik bo'lsa, multikolleniarlik mavjud emas deyiladi. Shuningdek, ayrim ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari 0,9 dan katta ekan. Demak, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud ekan.

Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning t-Styudent mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi keltirilgan. Omillar o'rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmashlik sharti qo'yiladi. Masalan, korxonada ishchi-xodimlar soni LN_KIS va korxonaning ishlab chiqarish quvvati LN_ICHQ o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{lnMU,lnICHQ} = 0.917$, $t = 2.597571$ va $prob. = 0,2339$ ga teng bo'lgan.

Mazkur ikki omil o'rtasida o'rtacha bog'lanish borligini bildiradi hamda xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 95 foiz aniqlikda ishonchli ekanligi va ushbu omil o'rtasida o'zaro zich bog'lanish mavjudligi aniqlandi.

